# XALQ DEPUTATLARI JARQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

# Q A R O R I

2025-yil 5-aprel VII-6-58-8-112-K/25 Jarqo‘rg‘on tumani

**O‘zbekiston Respublikasi aerogeodeziya markazi farg‘ona xududlararo bo‘linmasining Jarqo‘rg‘on tumanidagi shaharcha va qishloqlar chegaralarini belgilash natijalari haqidagi 2025-yil 24-fevraldagi 5-2025/29 sonli komissiya xulosalarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida.**

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori asosida Jarqo‘rg‘on tumani hokimining 2025-yil 8-fevraldagi 27-8-112-F/25-sonli farmoyishi asosida to‘zilgan komissiyasi hamda Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi bildan birgalikda o‘tkazilgan Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalaridan kelib chiqib tumandagi shahar, shaharcha va qishloqlarining umumiy perimetri **698144,79 metr,** umumiy maydoni **104948,50 gektar** ekanligi tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasining Jarqo‘rg‘on tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda deputatlar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalarini atroflicha muxokama qilib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashi

## Q A R O R Q I L A D I :

**1.** O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori asosida Jarqo‘rg‘on tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash haqidagi davlat kadastrlari palatasining Jarqo‘rg‘on tumanidagi filiali boshlig‘i E.Achilovning tumanning ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasining Jarqo‘rg‘on tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman komissiyasining 2025-yil 20-fevraldagi № 01/05-05 sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**3.** Jarqo‘rg‘on tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot ***1- ilovaga*** hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi ***2-ilovaga*** muvofiq tasdiqlansin.

**4.** Jarqo‘rg‘on tumani hokimligi matbuot xizmati D.Chorievaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

**5.** Ushbu qarorning tasdig‘i x a l q deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashidan so‘ralsin.

**6.** Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va tuman davlat kadastrlari palatasi Jarqo‘rg‘on tumani filiali boshlig‘i E.Achilov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi AVAZOV ELMUROD RO‘ZIMURODOVICH

Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 5-apreldagi
VII-6-58-8-112-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Jarqo‘rg‘on tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida**

**M A ’ L U M O T**

| T/r | Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi | Umumiy perimetr (metr) | Umumiy maydoni (gektar) |
|---|---|---|---|
| 1 | Jarqo‘rg‘on shahar | 37188,41 | 1658,70 |
| 2 | Qoraqursoq shaharchasi | 9984,40 | 263,43 |
| 3 | Minor shaharchasi | 7077,51 | 135,83 |
| 4 | Markaziy Surxon shaharchasi | 4999,94 | 84,64 |
| 5 | Kofrun shaharchasi | 11176,85 | 192,21 |
| 6 | Kakaydi shaharchasi | 5841,05 | 132,25 |
| 7 | Sharq yulduzi qishlog‘i | 70935,90 | 10039,83 |
| 8 | Chorjo‘y qishlog‘i | 67015,03 | 8478,76 |
| 9 | Surxon qishlog‘i | 100592,18 | 9871,17 |
| 10 | Oqqo‘rg‘on qishlog‘i | 62236,39 | 4075,62 |
| 11 | Minor qishlog‘i | 134800,07 | 36771,93 |
| 12 | Jarqo‘rg‘on qishlog‘i | 63995,06 | 7619,42 |
| 13 | Dehqonobod qishlog‘i | 122302,01 | 25624,71 |
| | **Jami** | **698144,79** | **104948,50** |

Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 5-apreldagi
VII-6-58-8-112-K/25 -son qaroriga
2-ilova

